YUKLAMALAR TASNIFI

Temirova Fotima Xusanovna
Alisherova Muborak Ahmad qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instititi Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabalari
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24202119

Annotatsiya. Ushbu mavzuda o'zbek tilshunosligida yordamchi so'z turkumlaridan biri bo'lgan yuklamalarning grammatik tabiati, ularning affikslarga o'xshash va farqli jihatlari, imlo qoidalari, gapda ifodalaydigan ma'no turlari hamda bog'lovchilar bilan o'zaro o'tishish xususiyatlari ilmiy misollar asosida atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: yuklama, affiks ko'rinishli yuklama, leksema ko'rinishli yuklama, imlo qoidalari, so'roq, ta'kid, taajjub, bog'lovchi-yuklama.

Annotation. This topic covers in detail the grammatical nature of affixes, which are one of the auxiliary word groups in Uzbek linguistics, their similarities and differences from affixes, spelling rules, types of meaning they express in a sentence, and the characteristics of their interaction with connectives based on scientific examples.

Keywords: affix, affix-like affix, lexeme-like affix, spelling rules, interrogative, emphasis, surprise, connective-affix.

Аннотация. Данная тема подробно рассматривает грамматическую природу аффиксов, являющихся одной из вспомогательных групп слов в узбекской лингвистике, их сходства и различия с аффиксами, правила правописания, типы значений, которые они выражают в предложении, и особенности их взаимодействия с союзами на основе научных примеров.

Ключевые слова: аффикс, аффиксоподобный аффикс, лексемоподобный аффикс, правила правописания, вопросительный, акцент, удивление, союзоподобный аффикс.

Yuklamalar asosan gapchaklarga bir butun holda, ba'zan biror sintaktik bo'lakka qo'shilib, so'roq, ta'kid, taajjub kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Yuklamalarning bir qismi ko'rinishi jihatidan affiksga o'xshaydi va affiks ko'rinishli yuklamalar deyiladi. Bunday yuklamalardan -mi, -gina (-kina, -qina), -oq/-yoq, -ov/-yov yuklamalari leksemashakllarga qo'shilib yoziladi. -chi, -ku, -da, -e, -a/-ya, -u/-yu, -ey/-yey yuklamalari esa chiziqcha bilan (yarim qo'shib) yoziladi. Yuklama leksemashakl tarkibiga kirmaydi, aksincha leksemashakllarga qo'shiladi. Shuni hisobga olib, yuqorida sanalgan barcha yuklamalarni chiziqcha bilan yozish to'g'ridir. Faqat -mi (shuningdek -dir gumon yuklamasi) leksemashakl tarkibida tuslovchidan oldin kelsa, qo'shib yozish shart bo'ladi: kelgan eding-mi, lekin kelganmiding; kelgan-dir, lekin kelgandirman kabi. Ayrim yuklamalar tashqi ko'rinishi jihatidan leksemaga o'xshaydi, shunga ko'ra leksema ko'rinishli yuklamalar deyiladi va leksemashakldan ayrim yoziladi: axir, faqat, nahot[ki], hatto[ki], suddi, ham, esa.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Yuklamalar odatda quyidagi ma'no turlariga ajratiladi: 1) kuchaytirish va ta'kid yuklamalari; 2) so'roq va taajjub yuklamalari; 3) ayiruv va chegaralov yuklamalari; 4) aniqlov yuklamasi; 5) gumon yuklamasi. Ayni bir yuklama qanday leksemashaklga qo'shilib kelishiga va qanday ohang bilan aytilishiga qarab turlicha ma'nolarni ifodalashi mumkin. Jumladan: -mi yuklamasi: 1) so'roq ma'nosini ifodalaydi (Xolposh daladami? — O'tkir Hoshimov); 2) noaniqlik ma'nosini bildirib, takroran ishlatiladi (kesimga, to'ldiruvchiga yoki holga qo'shilib keladi: Uning ovozidagi shu qahr sabab bo'ldimi, boshqami – Otaqo'zi buni bilolmay qoldi — Odil Yoqubov). -a/-ya yuklamasi: 1) so'roq ma'nosini (Qotil kim bo'ldi ekan-a? — Hamid G'ulom); 2) taajjub ma'nosini (Bolaga o'xshaydi-ya! — Oybek) ifodalaydi. -chi yuklamasi: 1) so'roq ma'nosini (Xotining-chi? U ham hech narsa demadi-mi? — O'tkir Hoshimov); 2) harakatga undash ma'nosini (.. o'zing yog'ingda o'zing qovrulguncha dardingni aytsang-chi! — Asqad Muxtor) bildiradi. nahot[ki] yuklamasi: So'roq bilan taajjub ma'nosini ifodalab, odatda kesimi -sa affiksi bilan shakllangan gaplarda ishlatiladi (N a h o t Otaqo'zi .. boshiga ko'tarib yurgan Jamol Bo'riboyev shu odam bo'lsa?! — Odil Yoqubov). ham yuklamasi: Ta'kid ma'nosini ifodalab egagiga, to'ldiruvchisiga, holiga, qaratuvchisiga, kesim vazifasidagi qo'shma fe'l qismlari orasiga yoki ergash bog'lovchiga qo'shilib keladi, shuningdek uyushiq qator qismlari oldida takror ishlatilganda bog'lovchiga o'xshab ketadi (Fazilatxon bizda h a m klub boshlig'i, h a m kutubxona mudiri bo'lib ishlaydilar — Odil Yoqubov). -esa yuklamasi: Ta'kid ma'nosini 'eslatish' ma'no qirrasi bilan birgalikda ifodalaydi va odatda egaga qo'shiladi (Ko'pchilik unga so'z berilishini talab qililar, rais e s a bosh tortar edi — Abdulla Qahhor). hatto yuklamasi: Ta'kid ma'nosini kuchli darajada ifodalaydi, odatda kesimga qo'shiladi yoki ma'noni yana-da kuchaytirish uchun ham yuklamasi bilan birga ishlatiladi (.. h a t t o otani xushlamaydigan Haydar h a m dadasining yonini olmadi — Odil Yoqubov). -ku yuklamasi: Ta'kid ma'nosini 'hissiyot' ma'no qirrasi bilan birgalikda kesimga yoki egagiga qo'shilib ifodalaydi (Bu ishning har bir varag'idan shaxsiy g'araz hidi keladi-ku! — Abdulla Qahhor). -da yuklamasi: Ta'kid ma'nosini 'pisanda' ma'no qirrasi bilan (Boshqa odam quribdi-da bu qishloqni! — Odil Yoqubov), shuningdek keyingi harakat oldingi harakatga tezda ulanib ketishi yoki 'istehzo' ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. xuddi yuklamasi: 'Ta'kidlab o'xshatish' ma'nosini ifodalaydi, ba'zan yolg'iz o'zi, ko'pincha -dek affiksoidi bilan birgalikda ishlatiladi. faqat yuklamasi: 'Chegaralab ta'kidlash' ma'nosini ifodalaydi, yolg'iz o'zi yoki ma'noni kuchaytirish uchun -gina yuklamasi bilan birgalikda qo'llanadi. -gina yuklamasi: 'Faqat' ma'nosini ta'kidlab ifodalaydi (Shunda-gina Farida boshini ko'tardi-da.. — O'tkir Hoshimov). -u/-yu yuklamasi: 1) keyingi harakatning oldingi harakat tugashi bilan boshlanishi ma'nosini (Birdan momaqaldiroq gumburladi-yu, ketidan shiddat bilan jala quya boshladi — O'tkir Hoshimov); 2) ta'kidlab sanash ma'nosini ifodalaydi. -oq/-yoq yuklamasi: 1) tezda ma'nosini paytga, o'ringa bog'lab ifodalaydi; 2) ..ma+s+dan shaklidagi sifatdoshga qo'shilib, 'hali boshlanmay turib' ma'nosini bildiradi (Komil kitobdan boshini ko'tarmasdanoq savolga savol bilan javob berdi — Hamid G'ulom).-dir yuklamasi: Taxmin ma'nosini ifodalaydi (Men bu kitobni o'qimagandirman kabi). na... na... yuklamasi: Ta'kidli inkor ma'nosini ifodalaydi (Qoni miyasiga urib darg'azab bo'lib ketganidan na ko'zini uqalash, na ust-boshini qoqish xayoligiga kelar... — Asqad Muxtor). Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklarida bog'lovchilarning vazifa jihatidan turlari (teng bog'lovchilar: biriktiruv, ayiruv, zidlov; ergashtiruvchi bog'lovchilar: aniqlov, sabab, shart, chog'ishtiruv) belgilangan. Ayrim so'zlarning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqib, ularning miqdori va turi hanuzgacha aniq belgilanganicha yo'q. Masalan, chog'ishtiruv bog'lovchisiga kiritiladigan go'yo, go'yoki so'zi gaplarni bog'lash uchun emas, balki o'xshatish, qiyoslash ma'noli qurilmalarda shu ma'noni ta'kidlash uchun xizmat qiladi va ta'kid yuklamasi hisoblanadi. Balki yordamchisi ham o'zining qo'llanishidagi ba'zi xususiyatiga ko'ra zidlov bog'lovchisidan farq qiladi; u

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qo'shma gap qismlarini bog'lamaydi, balki gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gapda gumon, qarama-qarshilik ma'nosini ta'kidlash uchun qo'llanadi hamda sof bog'lovchi bo'lolmay, yuklama sirasidan joy oladi. Qisqasi, bir turdan ikkinchi turga o'tish va bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi kabi oraliq hodisa hosil qilish – yordamchi so'z tabiatiga xos xususiyat bo'lib, ularning ichki manbasi boyishining bir yo'lidir. Ham... ham biriktiruv bog'lovchisi ta'kid qo'shimcha ma'no yo'g'iga ega, na... na inkor ma'nosini ifodalaydi, -mi so'roq-taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog'lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog'lovchi-yuklama hisoblanadi (Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo; Bir tovuqqa ham suv kerak, don ham kerak; U bir gapni aytdimi, albatta, qiladi).

Xulosa. Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tili bog'lovchisining ma'no va xususiyatlari tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog'lovchi bilan bog'liq masalalarni ilmiy hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh vazifalardan biri sanaladi. Yuklamalar tilimizda so'z va gaplarga qo'shimcha ma'noiy tus berish, emotsionallikni oshirish hamda fikrni aniq yetkazishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). – Toshkent: "Universitet", 2006. – 476 b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: "Talqin", 2005. – 260 b.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / To'ldirilgan 2-nashri). – Toshkent: "O'qituvchi", 2006. – 208 b.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 460 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.